

ASAR G'OYASINING QUTBIYLIKDA IFODALANISHI

S.Karimova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: *Maqolada L.N. Tolstoyning “Xo’jayin va xizmatkor” hikoyasida kontrastdan foydalanish mahorati yoritilgan. Syujet oqimining ham ta’zod usulida rivojlanishi misollar yordamida ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *kontrast, ta’zod, syujet, harakat, obraz, hikoya, kulminatsiya, xulosa.*

Annotatsion: *In the article, L.N. Tolstoy's story "The Master and the Servant" illustrates the skill of using contrast. The development of the plot flow is also revealed with the help of examples.*

Key words: *contrast, contrast, plot, movement, image, story, climax, conclusion.*

Аннотация: *В статье Л.Н. Рассказ Толстого «Хозяин и слуга» иллюстрирует мастерство использования контраста. Развитие сюжетного хода раскрывается также с помощью примеров.*

Ключевые слова: *контраст, контраст, сюжет, движение, образ, рассказ, кульминация, заключение.*

L.N.Tolstoy “Xo’jayin va xizmatkor” hikoyasida voqealarning hammasi kontrast qonuniyatiga bo’ysundirilgan. Hikoya qahramonlarining yo’lga tayyorlanishlarida, chanaga o’tirishlarida, yo’l davomida bo’lgan o’zaro munosabatlarida, adashib qolib tunni o’tkazish holatlarida, tongni kutish, tushlar, xudo, hayot va o’lim, hamda bir-biri haqidagi falsafiy o’ylarida qarama-qarshilik, qutbiylik saqlanadi. Qahramonlar safarga otlanar ekanlar;

Vasiliy Andreevich ikkita postin kiygan, uning og’irligidan kam harakatlanadi va tezda charchab qoladi.

Nikita esa chor-nochor kiyingan bo’lishiga qaramay yo’l davomida harakatlari yengil va abjir edi.

Matnda, safar davomida, Vasiliy Andreevichga xos bo’lgan xususiyatlar quyidagicha yoritiladi:

Vasiliy Andreevich “og’ir nafas olib”, “po’stinini qoqib-silkib” qo’ydi. U ustma-ust kiyilgan ikkita po’stinga shu qadar tikilib olgandiki, yo’liga yurolmay chanaga yotib oladi. Qor shunday qalin yoqqan ediki, u tizzadan baland edi. Yigirma qadam bosmasdan oq, holsizlanib to’xtab qoldi. Otini chanadan bo’shatib, yuganni otning bo’ynidan o’tkazib, minmoqchi bo’ldi. Lekin po’stini va etiklari og’irligidan harakatlana olmay yiqilib tushdi. So’ngra chana ustiga chiqib, otga minmoqchi bo’lgan edi, chana og’irligidan ag’anadi.

Vasiliy Andreevich Nikitaning harakatlariga istehzo bilan bosh qimirlatdi. U Nikitaning ma’lumotsizligi va qo’polligidan ijirg’alangan holda tunashga tayyorgarlik ko’ra boshladi. Chanadagi paxolni tekkislab, o’zining yonboshiga quyuqroq qilib soldi. Qo’llarini yengining ichiga tiqib, chananing burchagiga, shamoldan himoya qiladigan joyga yonboshladi.

Nikitaga xos xususiyatlar Vasiliy Andreevichga nisbatan qutbiy tasvirlanadi.

Nikita “lip etib chanadan tushdi-da, ostidan qamchinni olib chap tomonga qarab ketdi”.

Chanadan yengil tushdi-da yuganni qo’yib yuborib, otining oldiga bordi.

Qorga botib, so’ngra qordan chiqib, qor ichida yurishni davom ettiradi. Dam olish uchun o’tirdi. Yana yurishni davom ettirdi.

Chananing suyanchig’i orqasiga o’tdi. Qorni kovlab chuqur tayyorladi. U yerga paxol tashlab, shapkasini bosib kiyib, ko’rpachaga o’ralib, ustiga sholcha yopinib solingan paxolga o’tirdi. Qordan va izg’irindan himoya qiluvchi chananing orqasiga suyandi. Nikita qotib qolganday harakatsiz edi. Vaqtning o’tishini, tong otishini bosiqlik bilan “kutardi”.

Vasiliy Andreevich esa yigirma marta yotib turdi, tinch turolmasdi, soatiga qarab, tinimsiz chekardi. Sotilayotgan o’rmondan qancha foyda olishini chamalardi. Hisobdan adashib ketmaslik uchun raqamlarni adashtirib yubormaslikka harakat qilardi. Ko’ksi ustidagi hujjatlarni silab-siypalardi. Nikitani tashlab ketishga qaror qilib, shunday o’ylaydi: “Uning yashashidan yashamagani o’zi uchun yaxshiroq. Bu qanday hayot bo’ldi? Men esa yashashim kerak. Qiladigan ishlarim ko’p”.

Nikita esa aksincha xo’jayinini ayaydi: “Bunday ob-havoda yo’lga chiqqanimiz yaxshi bo’lmadi-da. Lekin uning ham o’lgisi kelmaydi. Yashash yaxshi”.

Vasiliy Andreevich va Nikitaga bag’ishlangan hikoyaning qismlari ham miqdoriy jihatdan kontrastli. Matnda Vasiliy Andreevich o’ylari uchun keng o’rin berilgan bo’lsa, Nikitaning o’ylari qisqa ifodalangan. Ularning o’lim haqidagi o’ylari ham tazodli. Nikita uchun eng oliy xo’jayin bu – xudo. Vasiliy Andreevich uchun xudo tadbirkorlikda sherik. Uning nazarida Xudo bilan bitishish mumkin. Jonini xudo saqlab qolishi uchun unga atab sham ko’tarib qo’ydi.

Hikoyada g’oyaviy fikr tashuvchi kontrastli detallar ham mavjud.

“Nikita stakandagi choyni ichib, mehnatdan va sovuqdan ishib ketgan barmoqlarini parga tutib ilitar edi”.

Gugurt bir lahzada yonib shubaning munqlarini, oltin ko’zli uzuk taqilgan ko’rsatkich barmog’ini ichkariga bukkan qo’llarini yoritdi.

Vasiliy Andreevich oz uxlaydi. Boyligi haqida muntazam o’ylaydi. Boyligini yo’qotib qo’yishdan qo’rqadi. Nikita esa xizmatdan ortib uxlolmagan vaqtlarini to’ldirish uchun mudraydi.

Epizodik qahramonlar ham kontrast usuliga bo’ysundirilgan.

Vasiliy Andreevich o’g’liga va xotiniga nisbatan qo’pol. Ulardan g’azablanish mumkin bo’lmagan holatlarda ham baqiradi.

Nikita esa xotini bilan yigirma yildan ortiq yashab, biror marta unga nisbatan yomonlikni o’ylamaydi.

Hikoyadagi jumlarlar faqat semantik jihatdangina emas, balki sintaktik jihatdan ham ziddir. Matnda zidlovchi va ajratuvchi bog’lovchi, kontrastlovchi leksik takrorlar, antonimli jumlar uchraydi.

“Hamrohlar yorug’ va issiq joydan chiqishib, qorong’u va sovuq chanaga o’tirishdi. Vasiliy Andreevich aroq ichdi. Nikita esa e’tiroz bildirdi.

Ba'zi hollarda semantik va sintaktik jihatdan kontrastni keltirib chiqaruvchi gaplar o'ziga xos guruhlarga bo'linadi. Fikr jihatdan uch bo'limga ajratilib, har birida semantik, sintaktik contrast hosil qiluvchi quyidagi holat yozuvchi mahorati haqidagi fikrimizni asoslaydi.

Birinchi bo'limda Vasiliy Andreevich, ikkinchi bo'limda qari xo'jayin, uchinchi bo'limda Petruxa va Nikitaning fikrlari aks etgan bo'lib, ular o'zaro qutbiydir:

“Obbo, - deb o'ylaydi Vasiliy Andreevich, - bunday ob-havoda yetib boorish ham qiyin. Ammo bormaslik ham mumkin emas! Ha endi tayyorlandingmi, jo'nash kerak. Xo'jalik oti ham tayyor. Xudo xohlasa yetib olamiz!”

Qari xo'jayin shunday o'ylaydi: hozir yo'lga chiqishning xojati yo'q edi. Ularni olib qolmoqchi bo'ldi. Lekin ko'nmadilar. Ehtimol manzilga eson-omon yetib borishar. Keksaligim menga pand berayotgandir.

Petruxa xavf haqida o'ylamasdi. Chunki o'rmon va cho'l orqali o'tib boruvchi yo'lni besh qo'lday bilardi. Uning ustiga kayfiyati ko'tarinki. She'r aytib ularni kuzatdi.

Nikita esa yo'lga chiqishni o'ylamas edi ham. Ammo xo'jayinning buyrug'ini so'zsiz bajarishga o'rganib qolgan edi.


Birinchi bo'limda: Vasiliy Andreevich safarga borishga shubhalanadi, ammo yo'lga chiqishga qaror qiladi.

Ikkinchi bo'limda qari xo'jayin shubhalanadi, lekin mehmonlarning yo'lga chiqqani yaxshi degan qarorga keladi.

Uchinchi bo'limda Petruxa yo'lga chiqish kerakligiga shubhalanmaydi ham, Nikita esa yo'lga chiqish mumkin emasligini o'ylab ham ko'rmaydi.

Yuqoridagi matnlarning har birida ichki qarama-qarshilik saqlanadi. Xatto Petruxa va Nikitaning fikrlarida ham ichki kelishmovchilik mavjud. Ya'ni Petruxa bo'ronda adashib qolishga munosabat bildirmasligi, Nikita esa inson sifatida muhokama qilish qobiliyatiga ega emasligida ichki contrast saqlanadi.

Semantik va sintaktik kontrastlar bilan tikilgan matnni quyidagicha sxemalash mumkin:



Qahramonlar asarning xulosasida ham qutbiy holatno o'zlarida saqlab qoldilar.

Muzlagan otining tasviri “...ot yig'lab turganday muzlagan edi” deb lirik planda berilgan bo'lsa, Vasiliy Andreevichning ko'zlari “boyqushning ko'ziday go'layib qolgan, ochilgan og'zi esa qorga to'lgan edi”. Odamlar chirmashib yotgan Nikitaning ustidan Vasiliy Andreevichni ag'darishganida Nikitani o'lmaganiga taajjublanadilar. Andreevich o'limi va Nikitaning hayot qolishining o'zida ham kontrastlilikni singdirib yuborgan.

Ma'lumot tarzida berilgan Nikiyaning o'n yildan keyingi olam oldidagi xotirjam o'limi ham Vasiliy Andreevich o'limiga kontrastdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, L.N.Tolstoyning “Xo'jayin va xizmatkor” hikoyasining kompozitsion qurilishi kontrast usuliga asoslanib, barcha badiiy vositalar shu



asosga xizmat qildirilgan. Bu esa yozuvchi mahoratini belgilovchi muhim qirralardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018
2. S. Karimova. Lev Tolstoy va Mirmuhsin ijodini qiyosiy o'rganish. Toshkent, 1989
3. Lev Nikolayevich Tolstoy. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 1-jild. Toshkent, 1980